

## Chet Tili O'Pgatishda O'Yin-Mashqlarning Roli

**Babayeva Vasila Tashpulatovna, Maxmurova Mavjuda Halimovna**

Bukhoro davlat universiteti Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedrasida  
o'qituvchilari

**Babayev Maxmud Tashpulatovich**

Bukhoro davlat universiteti "Tarjimashunoslik va lingvodidaktika"  
kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qituvchining kasbiy faoliyatidan kelib chiqqan holda chet tilini o'rgatishda interaktiv o'yinlar, interfaol metodlardan foydalangan holda mavzuni o'quvchiga yetkazishi xususida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** chet tili, o'yinlar, kompetensiya, kasbiy layoqat, interaktiv o'yinlar, interfaol metodlar, og'zaki nutq, tinglab tushunish, fikrni bayon etish.

So'nggi yillar davomida jahon miqyosida ro'y berayotgan globallashuv, integratsiya jarayonlari, chet tili o'qitish metodikasiga yaqin bo'lgan fanlarda erishilgan yutuqlar xorijiy til ta'limi metodikasida tubdan burilish yasalishiga olib keldi. Chet tilining jamiyatdagi maqomi o'zgardi, uning funksiyalari kengayib bormoqda. Xorijiy tillarga dunyo miqyosida yuz berayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlarini tezlashtirish nuqtai nazaridan madaniyatlararo muloqotni amalga oshiruvchi vosita, shuningdek, har bir mutaxassis kasbiy layoqatining yetakchi komponentlaridan biri sifatida qaralmoqda. Respublikamizda xorijiy tillarni o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda. Barcha ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish yo'lga qo'yilgan, o'quvchi, talaba va barcha toifadagi til o'rganuvchilar zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlangan.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasida juda katta o'zgarishlar olib borilmloqda. Jumladan yurtboshimizning "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yurtimizdagi keng qamrovli ta'lim islohotlarining uzviy davomi bo'lib, yoshlarimizning xorijiy axborot resurslaridan to'laqonli foydalanishi va ularning kelajakda xalqaro hamkorliklarni yanada yaxshiroq yo'lga qo'yishi uchun puxta zamin yaratadi.

Bugungi kunda chet tilni interfaol usullar, noan'anaviy metodlar asosida o'qitish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu biz pedagoglarning yanada izlanishimiz, o'rganishimiz va bilimlarimizni tadbiq etishga undaydi. Interfaol metodlarimiz texnologiyalaridan biri interaktiv o'yin usullari bo'lib, bu usul o'z ichiga ko'pgina jarayonlarini qamrab oladi.

Dars mashg'ulotlarida qo'llanadigan o'yinlarning turlari juda ko'p. Bular o'qish, tinglab tushunish, yozish, og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Quyida havola etiladigan o'yinlar og'zaki nutq va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, tushuntirish va izohlarini ingliz tilidagi misollar bilan ko'rib chiqamiz.[1]

1. **Xotirani charxlaymiz.** O'rganuvchi – ishtirokchilardan biri quyidagi gap bilan o'yin-mashqini boshlaydi. Ich mag ...**I'd like...**(Men hohlardimki...) Ikkinchi ishtirokchi gapni quyidagicha davom ettirishi mumkin: **Ich mag ein Tasse Koffe. I'd like a cup of coffee**(Men chashka qahva hohlayman...) Uchinchi ishtirokchi: Ich mag ein Tasse Kaffe und schokolade ...**I'd like a cup of coffee and chocolate...** (Men qahva va shokolad hohlayman...) Shu tariqa, barcha ishtirokchilar bittadan so'z qo'shib gapni davom ettiradilar. Har bir yangi so'z qo'shadigan ishtirokchi gapni boshidan takrorlashiga to'g'ri keladi. Gapni birinchi boshlab bergan ishtirokchining gapni va unga bog'langan yangi so'zlarni qaytarib berishi bilan o'yin-mashqi yakunlanadi. Qanday gap bilan boshlash va qaysi so'zni qo'shish o'rganuvchining tanloviga qarab bo'ladi va bu jarayonda tanlovning erkinligi ishtirokchilarning qiziquvchanligi va g'ayratini yuzaga keltiradi.

Bu o'yin-mashqini aynan talabalarga talab-taklifni o'rganishda foydalansa bo'ladi. Shuningdek, "xotirani charxlaymiz" o'yin-mashqini ko'pgina mavzularda qo'llashimiz mumkin, jumladan: **SPORT** -(Sport); **.Food, fruits. Essen und Obst** – (Oziq-ovqat, mevalar); **The historical places inParis. Historischen Baudenkmäler von Paris** – (Parijning tarixiy yodgorliklari); **My spare time-Meine Freizeit**-(Mening bo'sh vaqtim); **Professions/occupations. Berufe** - (Kasblar) va hokazolar [2].

Masalan, **BERUFE Occupations**-(Kasblar) mavzusida:

1-Ishtirokchi: Ich bin Arzt **I am a doctor. Ich arbeite im Hospital. I work at hospital**(Men shifokorman. Men shifoxonada ishlayman)

2-Ishtirokchi: **Ich bin Lehrer. I am a teacher. Ich arbeite in der Schule. I work at school** (Men o'qituvchiman. Men maktabda ishlayman)

3-Ishtirokchi: Ich bin Schüer. Ich lerne die Schule. **I'm a pupil. I study at school.** (Men o'quvchiman. Meng maktabda ta'lim olaman)

**Obst und Lebensmittel. Fruits and foods**-(Sabzavotlar va mahsulotlar, mevalar) mavzusida:

1-Ishtirokchi: Ich gehe einkaufen und kaufe ... **I go shopping and buy...**(Men bozorga boraman va sotib olaman...)

2. Ishtirokchi: Ich gehe einkaufen und kaufe ein Kilo Fleisch, 2 Kilo Tomaten und 3 Kilo Gurken ...**I go shopping and buy a kilos of meat, 2 kilos of tomatoes**



*and 3 kilos of cucumbers...* (Men bozorga boraman va bir kilo go'sht, 2 kilo pomidor, 3 kilo bodring sotib olaman...)

Ishtirokchilar ba'zida 1 tadan 4 tagacha yangi so'z qo'shib davom ettirishlari mumkin.

Bu o'yin-mashqi tinglab tushunish, takrorlash qo'nikmalari orqali o'rganilgan so'zlarni xotirada yaxshiroq saqlanib qolishi, amaliyotda qo'llay bilish ko'nikmasini yanada osonlashtirishi va lug'at boyligini oshirishda xizmat qiladi.

Bu "xotirani charxlaymiz" mashqini yangi mavzuni o'zlashtirib bo'lgandan so'ng dars oxirida yoki uyga berilgan topshiriqni so'rab olish uchun dars boshlanish jarayonida qo'llasa samarali natija beradi.

2. **To'g'ri va noto'g'ri** o'yin-mashqida bir ishtirokchi 3 ta gap aytadi, shulardan 2 tasi noto'g'ri qolgan 1 tasi to'g'ri bo'lishi kerak. Gaplar sodda tuzilgan bo'ladi. Masalan:

1) Ich magEiscreme. *I like ice-cream.* (Men muzqaymoqni yoqtiraman)

2) Ich lache gerne. *I like laughing* (Men kulishni yaxshi ko'raman)

3) *Ich gerne schwimmen. I like swimming* (Men suzishni yaxshi ko'raman)

Guruhdagilar o'zaro kelishib har bir gapning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aytishadi. Gap tuzgan ishtirokchi noto'g'ri gaplarga chap qo'l barmoqlarini ko'rsatib sanaydi. Topa olinmagan to'g'ri javoblar uchun o'ng qo'l barmoqlarini ko'rsatib sanaydi. Agar unda o'ng qo'l barmoqlari ko'p bo'lsa, u g'olib sanaladi.

Bu o'yin-mashqi guruh a'zolarining bir-birini qiziqishlari, shaxsiy hayotlari bilan yaqindan tanishishlari, jamoa bo'lib birlashishlarida qo'l keladi. Bu o'yin-mashqimizni dars so'ngida yoki mashg'ulotlardan tashqari holatda ham qo'llasa bo'ladi. O'yin holatida guruh a'zolari yarim oysimon shaklida o'tirishlari mumkin, asosiy ishtirokchi esa o'rta chiqadi.

3. **Jak dedi** o'yin-mashqida ishtirokchilar doira shaklda bo'lib o'tirishadi. Bir ishtirokchi *Jaques a dit: "Asseyez-vous!"* Jaques sagte sich: "Sitzen Sie!" (Jak dedi: "O'tiring!") –, deb boshlashi mumkin. Hamma o'tiradi. Navbat keyingi ishtirokchiga kelib davom etadi: *Jack said: Stand up!* Jag sagt Aufstehen (Jak dedi: "O'rningizdan turing!") hamma o'rnidan turadi va so'z keyingi ishtirokchiga beriladi. Agar gapirayotgan ishtirokchi *Jack said.* Jag sagt (Jak dedi) degan ibora bilan gapini boshlamasa, uning buyrug'iga amal qilinmaydi. O'xshash misollar:

*Jack said: "Dance!"* Jack sagt "Tanzen!" (Jak dedi: "Raqsga tushing!")

*Jack said: "Jump!" "Springen!"* (Jak dedi: "Sakrang!")

*Jack said: "Turn round your head!"* "Dreh den Kopf um!" (Жак деди: "Boshingizni aylantiring!")

**Jack said: "Open your mouth!"** "Öffne deinen Mund!" (Jak dedi: "Og'zingizni oching!")

Bu o'yin-mashqini **Imperative** (buyruq mayli) o'rgatilganda darsda qoida tushuntirilgandan so'ng tushunib qo'llashni tezda mustahkamlash uchun ishlatishda hamda o'rganuvchilarning dars vaqtidagi tetikligigi oshirishda yaxshi natija beradi.

4. **Mening akamning ismi Rok.** O'rgatuvchi bir ishtirokchini chiqishga taklif qiladi va unga qarata **My brother's name is Rock**- Der Name meines Bruders ist Rock (Mening akamning ismi Rok) degan gap bilan o'yinni boshlab beradi. Keyin u esa, savol beradi: **Where does he live?** Wohnt er?-(U qayerda yashaydi?). Savol berilgan ishtirokchi biror bir mamlakat yoki shahar nomini aytadi. Keyingi ishtirokchiga galdagi savolini beradi: **What's his wife's name?** Wie heißt seine Frau? (Uning xotinini ismi qanday?) kutilgan javob quyidagi tartibda shunday bo'lishi mumkin: **Her name is Ann.** Ihr Name ist Anna. (Anna, uning ismi Anna); berilgan javoblar to'liq bo'lib darak gap shaklida bo'ladi. Yana **What did he say?**- Was hat er gesagt?. (U nima yeydi?) kabi savollar bilan davom ettiriladi. Beriladigan barcha javoblar "A" harfi bilan boshlanadi. Birinchi raund tugab bo'lgach, o'rgatuvchi boshqa bir o'yin olib boruvchini tanlab o'xshash gap bilan o'yinni boshlab beradi: **My brother's name is Bernard.** Der Name meines Bruders ist Bernard. (Mening akamning ismi Bernard). Tabiiyki, Bernard "B" harfi bilan boshlanadigan mamlakat yoki shaharda istiqomat qiladi. O'yin shu tarzda davom etadi.

Bu o'yin-mashqi jarayonida ishtirokchilar yarim aylana yoki "P" shaklida o'rnashib oliylari qulayroq bo'ladi.

Grammatik savol so'zlar, savol tuzish tartibi o'rganilganda qo'llansa ijobiy natija ko'rsatadi [3].

Bu o'yin-mashqida o'rganuvchilar grammatik bilimlarini mustahkamlash, og'zaki nutq ko'nikmasini va lug'at boyligini ko'paytirishni faollashtiradilar.

O'yin-mashqlari jarayonida o'rganuvchilar hissiy va jimoniy tomondan har xil holatlarda bo'ladilar: bahs-munozara yuritadilar, kulishadi, o'z fikrlarini erkin namoyon etishadi. O'yin paytida ishtirokchilar asosan emotsional holatni yuqori notalarida bo'lishadi. Ma'lumki, psixologik nuqtai nazar bilan tahlil qiladigan bo'lsak, odam bunday holatda gapirgan yoki eshitgan gapini yaxshiroq va uzoqroq muddatga eslab qoladi.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Penny Ur Andrew Wright "Five minute activities" Cambridge handbooks for language teachers. 1996
2. John and Liz Soars Pre-Intermediate New Headway English course. Oxford



3. Бабаев М.Т., Бабаева В.Т. "Чет тилларини ўрганишда таржиманинг аҳамияти ва роли" - Вухоро "Durdona" nashriyoti-2020й. 348-351.
4. Babaev Mahmud Tashpulatovich USING MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 12 May 2021. 64-67
5. Бабаев Махмуд Ташпулатович, Бабаева Васида Ташпулатовна. Немис тилини ўргатишда мақол, матал ва иборалардан фойдаланиш. Бухоро-2021. 128-131.
6. Бабаева В. Т. Смешанное обучение – образование третьего поколения. International Scientific Journal ISJ Theoretical Applied Science Philadelphia, USA. Issue 01, volume 81 published January 30, 2020 622-625
7. Бабаева В. Т. Некоторые методы обратной связи в обучении и обучении иностранным языкам. Электронное периодическое издание "Экономика и социум" ISSN 2225-1545 .№ 1(68)- 2020,
8. Бабаева В.Т."Деятельность современного учителя в контексте нового парадигмы образования". Образование и культура. Векторы сотрудничества. Материалы межвузовской научно-теоретического конференции. Челябинск, 2019.Стр. 30-34.
9. Mavlanova Ugiloy Khamdamovna, Ruzieva Dilfuza Salimboevna, Babaeva Vasila Toshpulatovna. Irony in dramatic works//International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 3.
10. Makhmurova Mavjuda Halimovna. The importance of a foreign language in higher education. Вопросы науки и образования. 8 (92), P.15-19, 2020.
11. Махмурова М., Абдуллаева Л.С, Самадова С.А. Современные методы преподавания иностранных языков. Коммуникативный метод... Наука .Мысль. Том 6, ст.72-76. 2014/12/30.
12. Ньматова Моксибегим Фазлиддиновна Бобоева Васида Тошпулатовна, Бобоева Васида Тошпулатовна,Максмудова Мавжуда Халимовна, Хасанова Холида Фаттоевна. Роль игр и преимущества использования игр в изучении английского языка. International Journal of Advanced Science and Technology. Том 29, 9 (S). 2020.
13. Махмурова Мавжуда Халимовна, Ачилова Рисолат Аъзамовна. MODERN APPROACHES TO LEARNING A SECOND LANGUAGE. Scientific reports of Bukhara State University, 4/1, ст.182-185, 2020. 21. VT BABAYEVA, MH MAKHMUROVA, GK NAZAROVA. STUDYING LANGUAGE AS THE SECOND LANGUAGE LEARNERS. EConference Globe, ст. 89-94, 2021/3/31.

14. MK MAKHMUROVA. GRAMMATICAL CATEGORIES IN GERMAN AND UZBEK. EConference Globe, сt.118-123, 2021/3/31.
15. Maxmurova Mavjuda Halimovna. LINGUISTIC BASIS OF TEACHING ORAL COMMUNICATION OF STUDENTS IN GERMAN LANGUAGE LESSONS. BRIDGE TO SCIENCE:RESEARCH WORKS.ISBN 978- 1-941655-96-2. P.65-67. DOI:<http://doi.org/10.15350/L-2/7>. 2020/12/15
16. Мавжуда Халимовна Махмурова. МЕТАФОРЛАР НУТҚ ШАКЛИ СИФАТИДА. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. 4/1-1, 2021/3/15.
17. Гадоймуродова Зебаршо Рахмиддин кизи Махмурова Мавжуда Халимовна. Проектная деятельность студентов на уроках английского языка. Modern scientific challenges and trends 2 (36), 174-177p. 2021/2/28.
18. Makhmurova Mavjuda Khalimovna. The Role of Hadiths in Education and Upbringing. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. Volume: 02 Issue: 10 | October 2021, ISSN: 2660-6828 © 2021, CAJLPC, Central Asian Studies.
19. Mavlonova U. K., Maxmurovna M. K. THE INTRODUCTION OF IRONY IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 3. – С. 4-4.
20. Mavlonova U.K., Makhmurova M.Kh., Kodirov T.D. DESCRIPTION OF ART MEDIA IN LITERATURE // LXIV International Correspondence Scientific and Practical Conference “EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY» June 5-9, 2020. London, United Kingdom.
21. Mavlonova Ugiloy Khamdamovna, Makhmurova Mavjuda Khalimovna. ANALYSIS OF SITUATIONAL IRONY IN LITERATURE. ЖУРНАЛ «ACADEMY» © ИЗДАТЕЛЬСТВО «ПРОБЛЕМЫ НАУКИ». Том 62, номер 11, сt. 26-27.
22. Khamdamovna, M. U. (2021). The use of Irony in Uzbek Poems as a Speech Decoration. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(11), 17-20. <https://doi.org/10.47494/cajlpс.v2i11.242>